



## OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KREDIT MODUL TIZIMIGA O'TISH JARAYONI

**Daminov Alisher**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**Ta'lim muassasalarining boshqaruv magistranti**

**Alimova Qunduz Oybek qizi**

**Maktab menejmenti kafedrası o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalarda kredit modul tizimining avfzalliklari hamda kamchiliklari, rivojlanish tarixi haqida fikrlar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** kredit-modul tizimi, kredit-soati, talabalar bilimi, ballik tizim, boshqaruv ko'nikmalari

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash<sup>1</sup>.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

<sup>1</sup> Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020 y. 120 bet.



1999 yilda 29 ta davlat tomonidan Bolonyada yagona ta'lim muhitini yaratish jarayonida ishtirok etish haqidagi Deklaratsiya imzolandi. Uning maqsadi taqqoslanadigan darajalar tizimini qabul qilish, akademik va kasbiy tan olishni yengillashtirish va bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini ta'minlashga qaratildi. Bolonya jarayoni barcha davlatlar uchun ochiq bo'lib, bugungi kunga kelib ishtirokchi davlatlar soni 50 ga yaqinlashib qoldi.

Bolonya deklaratsiyasini imzolagan barcha davlatlar oliy ta'limning ikki bosqichli (bakalavriat – 3-4 yil, magistratura – 1-2 yil) tizimiga o'tishgan. Oliy ta'limdan keyin doktor (3-4 yil) darajasini olishga imkon yaratiladi.<sup>2</sup> Xorijda ECTS (European Credit Transfer System) tizimi ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir o'quv faniga yuklama hajmidan, kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun muhimligidan kelib chiqib kredit bali belgilanadi. Talaba har bir fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan taqdirda belgilangan kreditlarni oladi va bu kreditlar yig'indisi unga mos bo'lgan bakalavr yoki magistrlik darajasini olishga imkon beradi.

Xo'sh, kredit-modul tizimi nimani nazarda tutadi? Bugungi kunda ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun dunyo tajribasida kredit tizimi deb nomlangan amaliyotdan keng foydalaniladi. Kredit tizimi o'z ichiga Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish ta'lim va uning uchun sarflanadigan umumiy mehnat xarajatlari miqdorini qamrab oladi. Jahon amaliyotida Amerika Qo'shma Shtatlari kredit tizimi (USCS), Kreditlarning to'plash va o'tkazishning Britaniya tizim (SATS), Yevropa kredit tizimi (ECTS), Universitet kreditlarini o'tkazishning Osiyo- tinch okeani tizimi (UCTS) eng keng tarqalgan tizimlar hisoblanadi. "Kredit soat" tizimi dastlab AQSHda paydo bo'lgan va takomillashgan. 1969 yilda Garvard universiteti Prezidenti, Amerika ta'limining atoqli namoyandasi Charlz Eliot birinchi bo'lib "kredit-soat" tushunchasini kiritdi va 1870-1880 yillar davomida fan hajmini kredit-soatlarda o'lchashga imkon beruvchi tizimni joriy qildi. 1892 yildan "kredit-soat" tizimini joriy qilishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Bunda AQSH milliy ta'lim qo'mitasi "kollej-maktab" bo'g'inini yaxshilash, o'rta maktablarda o'quv dasturlarini standartlash

<sup>2</sup> Atack, P. (2020). What is the European Credit Transfer System (ECTS)? Retrieved from <https://www.study.eu/article/what-is-the-ects-european-credit-transfer-and-accumulation-system>





maqsadida nafaqat kollejlarda, balki o‘rta maktablar uchun ham “kredit” tushunchasini joriy qildi va keyinchalik bakalvriat dasturlari mazmunini baholashning kredit tizimini magistratura va doktorlik ta’lim bosqichlarigacha kengaytirdi.

Bakalavr darajasini (Bachelor of Arts - BA yoki Bachelor of Science - BSc)

olish 4 yil o‘qishni nazarda tutadi. Bu davr ichida talaba o‘rtacha har biri 3 kreditlik 40 tacha fanni o‘zlashtirishi zarur bo‘ladi. Birinchi va ikkinchi yil tayanch bilimlarni olish uchun ajratiladi (ta’minan, 60-68 kredit) va oraliq daraja (Associates) bilan yakunlanadi, uchinchi va to‘rtinchi yillar mutaxassislik fanlarini jadal o‘rganishga bag‘ishlanadi va bu jarayon malakaviy imtihon bilan tugallanadi.

Oliy ta’limning ikkinchi bosqichi (Graduate Level) – bu o‘rta hisobda ikki yillik o‘qish natijasida magistr darajasini (Master of Arts - MA yoki Master of Science - MSc) olish uchun mo‘ljallangan magistrlik dasturlaridir<sup>3</sup>.

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning ikkinchi bosqichi va uchinchi pog‘onasi – doktorlik dasturlari bo‘yicha o‘qish bo‘lib, u tor mutaxassislikga o‘qish va mustaqil ilmiy izlanuvchilikga yo‘naltirilgan.

Darajani olish uchun talaba belgilangan miqdordagi kredit-soatlarni to‘plashi zarur. AQSH da qabul qilingan USCS (US Credit System) tizimida kredit-soat – bu o‘qish vaqtiga asoslangan o‘lchovdir. Masalan, bakalvriatda 1 kredit-soat talabning semestr davomida har haftadagi 1 akademik soat auditoriya ishiga teng. Bundan tashqari har bir auditoriya mashg‘ulotiga 2 soat (100 minut) mustaqil ish qo‘shib beriladi. Magistraturada, va ayniqsa doktoranturada bu mehnat hajmida mustaqil ishning hissasi ko‘payib borishi nazarda tutiladi.

Shunday qilib, Yevropada mantiqan rad etib bo‘lmaydigan, maksimal darajada yaqinlashish va milliy tizimlarning baholash shkalalarini umumevropa andozasi bo‘yicha tenglashtirish uchun zarur bo‘lgan ECTS tizimi paydo bo‘ldi. Unga ko‘ra Yevropa krediti – tyutor va talaba kontakt soatlari hajmining shartli birligi hisoblanadi.

Yuqoridagilar dars mashg‘ulotlarini nafaqat o‘qitishni innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o‘qibo‘rganish, ta’limga

<sup>3</sup> Attack, P. (2020). What is the European Credit Transfer System (ECTS)? Retrieved from <https://www.study.eu/article/what-is-the-ects-european-credit-transfer-and-accumulation-system>



yangicha munosabatda bo‘lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga o‘rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo‘naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta‘minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

Ma‘lumki, bizda axborot manbai va turli xildagi xalqaro ma‘lumotlar bazalariga kirish, ulardan foydalanish ma‘lum darajada cheklanib qolgandi. Oqibatda oliy ta‘limda professor-o‘qituvchilarning asosiy diqqati axborotni qidirib topish, uni o‘zlashtirish hamda dastlabki qayta ishlagandan so‘ng talabalarga tarqatishga qaratildi. Ya‘ni o‘qituvchilar shunchaki axborotni qabul qiluvchi va uzatuvchi subyekt edi, xolos. Bunda talaba o‘quv jarayonining obyekt sifatida axborotni qabul qiluvchi vazifasini bajarar, asosiy vaqtini auditoriyada ma‘ruza mashg‘ulotlarini tinglashga sarflar edi.

Bugungi kunga kelib esa axborotlar olamidan bahramand bo‘lishning tezlashgani, xalqaro ilmiy-texnik ma‘lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlarining kengaygani, globallashuv jarayonlari jadallashgani bois talabalarining mustaqil ta‘limini rivojlantirish masalasi kun tartibiga ko‘tarildi.<sup>4</sup> Ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar o‘quv rejalari esa mehnat bozori talabi bilan bog‘lanmagan fanlar bilan to‘ldirililar, asosan, professor-o‘qituvchini ish bilan ta‘minlash, unga auditoriya soatini chiqarib berish prinsipi nuqtai nazaridan, shuningdek, kafedra mudirlarining o‘zaro kelishgan holda fanlarni taqsimlash asosida shakllantirililar edi.

Talabaga fanlarni hamda professor-o‘qituvchilarni tanlash u yoqda tursin, zerikarli bo‘lgan mashg‘ulotlardan voz kechib, kutubxonada o‘qib-o‘rganishiga ham imkon berilmas edi. Talabning dars mashg‘ulotlarini qoldirishiga jiddiy talafot sifatida qaralib, bir semestrda 30 soatdan oshsa ogohlantirish, 74 soatdan oshsa, talabalik safidan chiqarishgacha borilardi. Talabaga ushbu fan va o‘qituvchi yoqadimi-yoqmaydimi,

<sup>4</sup> The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.





berilayotgan bilimlar almisoqdan qolib ketganmi-ketmaganmi, auditoriyada o‘tirishi shart edi!

Xullas, an’anaviy tizimda talaba kelajakda qanday bilimlarni egallashi, qanaqangi professor-o‘qituvchilar dars berishi, yo‘nalish profili, fanlarning qisqacha mazmuni bo‘yicha hech qanday materiallar taqdim etilmasdi. Vaholanki, rivojlangan xorijiy davlatlarning barcha OTMda ta‘lim yo‘nalishi va mutaxassisliklar to‘g‘risidagi hamma ma‘lumotlar, xususan, o‘quv rejasida aks etgan fanlarning qisqacha sillabusi (fanning identifikatsiyasi, professor-o‘qituvchi haqida ma‘lumot, dars tavsifi, fanning maqsadi, o‘rganish natijalari, o‘qitish metodikasi, fanning rejalari, adabiyotlar, baholash metodikasi), fanlar kesimida dars mashg‘ulotlarini olib boradigan professor-o‘qituvchilar hamda ularning erishgan yutuqlari, mehnat bozorida mutaxassisga qo‘yilgan qisqacha talablar, ya‘ni qanday nazariy, amaliy bilim, ko‘nikma va kasbiy malakaga ega bo‘lishi bilan bog‘liq ma‘lumotlar universitetlarning rasmiy veb-saytida ochiq-oydin e‘lon qilingan bo‘ladi.

Ayni paytda, ming afsuski, abituriyentlar universitetlarimiz saytlarida ushbu ma‘lumotlarni topishga qiynalishadi.

Kredit bu baho emas, balki ish hajmi hisoblanadi. Masalan, talaba 5 kreditlik fanni o‘zlashtirgan bo‘lsa, u 5 kredit hajmidagi ishni bajargan hisoblanadi, ya‘ni u ushbu fanning ma‘ruzalarida, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida qatnashgan, mustaqil ish topshiriqlarini bajargan hisoblanadi. Demak, bu fanni o‘zlashtirgan talaba uni qanday bahoga o‘zlashtirganidan qat’iy nazar u 5 kreditni qo‘lga kiritadi.

Kredit-modul tizimining mazmun-mohiyatini ochib berishda uni faqat “kredit” va “modul” atamalari orqali izohlash yetarli bo‘lmaydi. Bu atamalar uni ixcham nomlash uchun qo‘llanilgan, xolos. Biz kredit-modul tizimining mohiyatini boshqacha usulda ochib bermoqchimiz. Ya‘ni, biz kitobning yaratilishiga asos bo‘lgan tamoyillar, kredit-modul tizimining amaldagi ta‘lim tizimidan farq qiluvchi jihatlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-



oktabrdagi PF-5847-son hamda “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida 2021 yil 31 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-sonli qarori bilan 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab kredit-modul tizimi joriy etildi<sup>5</sup>

Mazkur tizimning oliy ta‘limga joriy qilinishi o‘qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta‘minlash, korrupsiyaga barham berish, ta‘lim oluvchining haqiqiy bilimini yuzaga chiqarish hamda talabning mustaqil o‘qib-o‘rganib, o‘z ustida ishlashiga zamin yaratadi. Bugungi kunda Yevropa kredit tizimi ko‘hna qit‘aning deyarli barcha oliy o‘quv yurtida amaliyotga joriy etilgan<sup>6</sup>.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi o‘qituvchi va talabning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta‘limda pedagog tinglovchining o‘zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo‘naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg‘u ham talabalarning mustaqil ta‘lim olishiga qaratiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Atack, P. (2020). What is the European Credit Transfer System (ECTS)? Retrieved from <https://www.study.eu/article/what-is-the-ects-european-credit-transfer-and-accumulation-system>
2. Baxter, A. (1997). Evaluating your students. Richmond Publishing, 1997, ISBN 84-294-5067-X
3. Munira, Z. (2022). THE BACKWASH OF SHADOW EDUCATION. Conferencea,

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-sonli qarori.

<sup>6</sup> The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.



110-111.

4. Scriven, M. (1967). The methodology of evaluation. In Perspectives of curriculum evaluation. R.W. Tyler, R.M. Gagne, and M. Scriven, (eds.) pp. 39–83. Chicago, IL: Rand McNally
5. Качмазова И.Л., Тебиева А.Б., Тимошкина Н.В. МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ОЦЕНИВАНИЯ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ОКРУЖАЮЩЕГО МИРА // Международный студенческий научный вестник. – 2018. – № 6. ; URL: <https://eduherald.ru/ru/article/view?id=19347> (дата обращения: 29.04.2023).

